

O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMINING GERMANIYA SOLIQ TIZIMI BILAN SOLISHTIRMA TAHLILI.

Sug'urta ishi yo'nalishi 3- kurs talabalari,
Yuldasheva Dilorom Dadajonovna va
Ashuraliyev Jasurbek Azamatjon o'g'li

Ilmiy rahbar: **G'oziyev M**,
Moliya kafedrası katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA.

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi va Germaniya mamlakati soliq tizimi bilan solishtirilib, bir qancha o'xshashlik va farqli tomonlari tahlil qilingan. Germaniya soliq tizimi O'zbekiston soliq tizimiga nisbatan ancha murakkab tuzilishga ega ekanligi va jismoniy shaxslar daromadiga soliq misolida ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar:

Soliq, federal, qo'shma soliqlar, taqsimlangan, taqsimlanmagan, jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar, daromad solig'i, korporatsiya, legalizatsiya, byudjet.

O'zbekiston soliq tizimini Germaniya mamlakati bilan solishtiradigan bo'lsak bir qancha o'xshashlik va farqli tomonlari mavjud. Ularni quyida ko'rib chiqishimiz mumkin. O'zbekiston soliqlar respublika va mahalliy soliqlarga bo'linsa, Germaniya federallarga(hudud) va mahalliy soliqlarga bo'linadi. Germaniyada qo'shma soliqlar, ya'ni bir vaqtning o'zida bir necha byudjetga tushadigan soliqlar mavjud. O'zbekistonda esa yo'q, har bir soliq turi turlicha bitta byudjetga tushadi.

Germaniya soliq tizimi O'zbekiston soliq tizimiga nisbatan ancha murakkab tuzilishga ega. Buni jismoniy shaxslar daromadiga soliq misolida ko'rishimiz mumkin.

Germaniyada korporatsiyalar daromadiga soliq solishda soliqqa tortilmaydigan minerallar bor. Korporatsiyalarni daromadini soliqqa tortishni daromadlar ikkiga bo'linadi:

- Taqsimlanadigan
- Taqsimlanmaydigan

O'zbekistonda bu soliq yuridik shaxslar daromadiga soliq deb yuritiladi. Yuridik shaxslarni faoliyatidan kelib chiqib korxonalar yagona soliq va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yalpi daromad solig'i va qolgan yuridik shaxslar umumiy tartibda soliq to'laydilar.

O'zbekistonda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soliq bugungi kunda soliq va yeg'imlar byudjet daromadlarining qariyb 10-11%ini tashkil etadi. O'zbekistonda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soliq tushumlari: 2024-yilda 35 608 milliard so'm bo'lsa, 2025-yilda ushbu ko'rsatkich 6 385 milliard so'mga ko'p prognozlashtirilmoqda, ya'ni 41 992 milliard so'mga.

Bunda mehnatga haq to'lash jamlanmasining bazaviy o'sishi, hamda legalizatsiya qilish tadbirlari ko'zga tutilmoqda.

Bu daromadlar tartibida yollanib ishlovchilardan olinadigan daromad dividend teng va foiz ko'rinishidagi daromadlar bo'yicha soliq, deklaratsiya asosida to'lanadigan daromad solig'i tushumlari hisobga olinadi.

O'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar bilan soliq sohasidagi hamkorligi bo'yicha, O'zbekiston xalqaro huquqning teng huquqli subyekti sifatida dunyoning boshqa mamlakatlari bilan soliqqa tortish sohasidagi shartnomaviy-huquqiy bazani mustahkamlash bo'yicha soliq siyosatini ildamlilik bilan yuritmoqda. 1993-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi soliqqa tortish sohasida yaqin va uzoq xorijdagi mamlakatlar bilan xalqaro shartnomalar tizimini shakllantirish bo'yicha ishlar olib bormoqda. Bugungi kunda dunyoning har xil mamlakatlari bilan 53ta ikki tomonlama shartnomalar imzolangan.

Qo'shma soliqlarning taqsimlanishi.

№	Soliqlar nomi	Soliqlarning soliq summasidagi ulushi		
		Federatsiyal arga	Yerlar ga	Jamoala rga
1	QQS	67.5	32.5	-
2	Qo'shimcha ajratmalar	1.5	1.5	-
3	Daromad solig'i	42.5	42.5	15.3
4	Dekloratsiyalanm agan daromad	50	50	-
5	Korporatsiya solig'i	50	50	-
6	Kosibchilik	9	9	82

Germaniya Respublikasida byudjetning markazlashmaganligi markaziy byudjetvositalarining mablag'larining qayta taqsimlanishi bilan emas, balki byudjet daromadlarni manbalarining qonuniy biriktirilib qo'yishi bilan amalga oshiriladi.

Har bir soliq bo'yicha deyarli alohida meyoriy hujjatlar mavjud. Germaniya Respublikasida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'g'ri soliqlar ichida eng muhim hisoblanadi. Soliqqa tortish obyekti bo'lib ish haqi, erkin kasb daromadlari, gonorallar, kapital daromadlaribanklar jamg'armalaridagi foizlar, ijara haqi, xususiy ish faoliyatidan olinadigan daromadlar va boshqalar kiradi. Germaniya Respublikasida 6ta soliq informatsiyalari mavjud bo'lib, ular ishchi va xizmatchilarning umumiy holatini, bolalar sonini hisobga olgan holda amal qiladi.

- ✓ 1 sinfga: bo'ydoqlar, bolasiz ishchilar, ajrashaglar, bevalar
- ✓ 2-sinfga: ajrashib bitta bolasi borlar

- ✓ 3-sinfga: oilalilar, agar bittasi ishlasa (ikkalasi ishlasa) ularning bittasi 5-sinfga o'tkaziladi
- ✓ 4-sinfga: oilada er-xotin bir vaqtda ishlasa daromadlari alohida soliqqa tortilganda
- ✓ 5-sinfga: oilada ikkalasi ham ishlab ularning umumiy kelishuvga asosan 3-sinfga o'tkazilgan bo'lsa
- ✓ 6-sinfga: 1 nechta ish joylarida daromad oluvchilar.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, turli mamlakatlar soliq tizimlari turlicha bo'lishiga qaramasdan, ularda nafaqat mamlakatlarning ichki vazifalarini ado etilishida, balki tashqi iqtisodiy darajada ham samarali faoliyat yuritishda o'xshashliklar mavjud.

Rivojlanayotgan mamalatlarda o'tkazilayotgan islohotlar tajribasini tahlil qilish mamlakatimizda soliq sohasida o'zgarishlarni amalga oshirishda foydali saboqlarni berish mumkin. Ammo shu o'rinda, milliy iqtisodiy tizimning o'ziga xos shartlari: aholining mehnat an'analari va shunga o'xshash boshqa amallarni inobatga olish darkor.

Germaniyada soliq to'lovchilar deklaratsiya va hisob-kitoblarni topshirish uchun maxsus elektr tizimidan foydalanish mumkin. Bu tizim soliq ma'lumotlarini qayta ishlash xavfsizligini ta'minlaydi va xatolar sonini kamaytiradi, bu esa soliq ma'muriyatchiligi jarayonini yanada samarali qiladi.

O'zbekiston ham soliq ma'muriyatchiligiga raqamli texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratmoqda. Xorijiy davlatlar tajribasini inobatga olib samarali va xavfsiz axborot tizimlarini joriy qilish, davlat organlari va soliq to'lovchilar o'rtasida elektron hamkorlikni rivojlantirish muhimdir.

Mamlakatlar o'rtasidagi tajriba va tavsiyalar almashuvini kuchaytirish O'zbekistonning soliq ma'muriyatchiligiga raqamli texnologiyalarning muvaffaqiyatli joriy qilishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. “Chet mamlakatlar soliq tizimi” fanidan ma’ruza matnlari – T TMI 2005
2. Aliboyev S. Soliqlar , o’quv qo’llanma – T 2000
3. Malikov T. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari – T, Akademiya 2002-y
4. To’xliyev B.K., A’zamov A.T Soliqlar va soliqqa tortish – T 2002
5. Vahobov A, Jo’rayev A S Soliqlar va soliqqa tortish, Darslik – T, “Iqtisod-moliya” 2019
6. Xudoyqulov S Soliq tuzilishi, O’quv qo’llanma – T: Ilm ziyo, 2012